

BADIIY ADABIYOTDA MANQURT OBRAZI

Mirolimbek Xamidov

adabiyotshunoslik kafedrası katta o‘qituvchisi (PHD)

E-mail: mirolimbekxamidov@gmail.com

Robiyaxon Odiljonova

FarDU filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: dosfar9799@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yosh avlodni ham jismonan, ham ma’nan jihatdan manqurtga aylanishi mumkinligi, shu tufayli manqurtlikka chek qo’yish va sog‘lom avlodni tarbiyalashda asosan nimalarga e’tibor berish haqida umumiy fikr yuritilgan. Bundan tashqari, Abduqayum Yo‘ldoshevning manqurt obrazini yaratishdagi badiiy mahorati ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: manqurt, ma’naviyat, kompyuter o‘yinlari, xotira, sog‘lom avlod, kelajak, tarbiya.

IMAGE OF MANQURT IN FICTION LITERATURE.

ABSTRACT

In this article, a general opinion is given about the fact that the young generation can become mentally and physically stunted, and because of this, what should be paid attention to in order to put an end to stunting and raise a healthy generation. In addition, the artistic skill of Abduqayum Yoldoshev in creating the image of manqurt is also covered.

Keywords: mangurt, spirituality, computer games, memory, healthy generation, future, education.

“Manqurt” so‘zi ko‘chma ma’noda o‘z tarixini, o‘z naslini, o‘zining tomirlarini unutgan kishiga nisbatan ishlatiladi. Manqurt so‘zi publitsistikaga urf bo‘lgan laqabga, o‘z qadriyatlarini, o‘zining aslini, o‘zligini unutgan, yo‘qotgan odamning ramziga aylanib qoldi. Shu so‘zdan olingan manqurtlik (mankurtizm) atamasi ham muomalaga kirib qoldi. Bu atama ayniqsa Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tatariston, Boshqirdistonda o‘z milliy madaniyatiga beparvo bo‘lganlar uchun haqoratli laqabga aylandi. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romaniga ko‘ra, manqurt — asirga olingan, ruhsiz qul bo‘lib, xo‘jayiniga so‘zsiz itoat qiluvchi, xotirasidan mahrum qilingan odamdir. Chingiz Aytmatovning aytishiga ko‘ra, asirga tushgan tutqun sochini qirtishlab olib tashlab, uning boshiga hozirgina so‘yilgan tuyaning bo‘yin terisi kiydirilgan. Shundan so‘ng uning qo‘l-oyog‘i bog‘lanib, boshini yerga tekkiza olmasligi uchun bo‘yniga kattakon taxtakach kiydirilgan va shu ahvolda bir necha kun cho‘lning o‘rtasiga tashlab qo‘yilgan. Sahroning ayovsiz quyoshi ostida tuyaning terisi qotib, tirishib, bechora tutqun boshini siqa boshlar, uning tikandek o‘sa boshlagan sochlari terisiga qadalib, misli ko‘rilmagan og‘riq berar, buning ustiga tashnalik azobi chidab bo‘lmas qiynoqqa solar edi. Ma’lum vaqt o‘tgach, tutqun o‘lib ketar yoki xotirasidan butkul mahrum bo‘lib, ideal qulga aylanib qolar edi. Irodasiz, xo‘jayiniga itdek itoatkor manqurt qullar oddiy qullardan bir necha baravar qimmat turar edi. Romanda aytilishicha, manqurtga «nimani istaysan?» deyishsa, «Osmondagi oyni» deydi. Kim birinchi borib, qo‘l-oyog‘ini bo‘shatib, boshidagi tuya terisini yechib olib, o‘rniga qalpoq bersa, manqurtga aylangan tutqun o‘sha odamni o‘zining xo‘jayini deb eslab qoladi va unga umr bo‘yi itdek sodiq qulga aylanadi. Uning uchun dunyoda eng dahshatli narsa – ana shu qalpog‘idan ayrilish. “Asrga tatigulik kun” romanida Jo‘lamon manqurt sifatida tasvirlandi. Lekin asardagi o‘zligini, ruhiyatini, ajdodlari udumini yo‘qotgan o‘zicha bilimdon shaxs Sobitjon ham bir manqurtdir. Manqurtga aylangan Jo‘lamon juanjuanlarning hamma aytgan gaplariga ishonadi. Hatto o‘z

onasini ham eslay olmaydigan darajada xotirasini yo‘qotadi. Qon-qarindoshi hisoblangan onasini tanimaslik bu qanday ayanchli holat. Juanjuanlar Nayman ona kelayotganini ko‘rib, Jo‘lamonga shunday deb qo‘rqitishadi: “Anavi seni izlab kelib, yig‘lab, atrofingda girdikapalak bo‘layotgan xotin sening qalpog‘ingni olib qochmoqchi”. Bu gaplardan ko‘zlari ola-kula bo‘lgan Jo‘lamon Nayman onaga nafrat bilan qaray boshlaydi va o‘z onasidan qo‘rqa boshlaydi. Shunda xo‘jayinlari uning qo‘liga o‘q-yoy berib, o‘zining qalpog‘ini osmonga otadi, manqurt qalpoqni bexato nishonga oladi. Demak, uning xotirasi o‘chgani bilan, qo‘lidagi qobiliyati, iste’dodi saqlanib qoladi.²⁷ Buyuk adib Chingiz Aytmatov bugungi avlodning ana shunday o‘zligini yo‘qotgan, lekin qo‘lidan hamma ish keladigan vakillarini manqurtlarga o‘xshatadi. Bu romanda Jo‘lamon xotirasini yo‘qotishi bilan birga o‘zligini ham yo‘qotadi. Bu esa o‘z-o‘zidan qondosh bo‘lgan onasini ham tanimasdan uni otib tashlashga ham sabab bo‘ladi. O‘zligini bilmaydigan bu avlod romanda o‘z millatdoshlarini “xalq dushmani” sifatida qamab, o‘ldirib yuborib, huzur qiladi. Unga bu vakolatni, bu mansabni kim bersa, o‘sha inson u uchun xo‘jayindir. Xo‘jayinlari unga nimani buyursa, faqat u shuni qiladi. Erta-yu kech o‘sha xo‘jayinlarining aytgan topshiriqlarini bajarish hamda ularga yoqish dardida bo‘lishadi.

Endi biz Abduqayum Yo‘ldoshevning “Samo elchisi” deb nomlangan hikoyasidagi kompyuter o‘yinlariga haddan ortiq berilib, tashqi dunyodan ancha uzoqlashgan Abdurayim obraziga e’tibor bersak. Hikoyada qahramon ongini yo‘qotgan bir manqurt sifatida tasvirlangan. Kompyuter o‘yinlari yoshlarning vaqtini o‘g‘irlamoqda. Abdurayimning ham ayni o‘qib, ilm hosil qiladigan paytida vaqtini bekorchi o‘yinlarga sarflayotgani achinarli holat. Chunki hozirgi kunda kompyuter o‘yinlari orqali o‘smir yoshlarga salbiy ta’sir qilib, ular ongiga o‘z buzg‘unchi g‘oyalarini singdirish yoki ularni to‘g‘ri yo‘ldan ozdirishga urinadigan yashirin kuchlar juda ko‘p. Abdurayim kabi bolalarning bu o‘yinlarga haddan ortiq berilishi jamiyat uchun ham bir fojeadir. U kompyuter o‘yinlarini juda ko‘p to‘xtovsiz o‘ynaganligi sababli tashqi dunyodan uzilib qoladi. Atrofda nima bo‘lyapti, qanday

²⁷ Xabar.uz Adham Otajonov

o‘zgarishlar bo‘lyapti bularning barchasi u uchun farqsizdek tuyuladi. Shu sababli ham samoviy mehmonni unga xalaqit berayotganligini ko‘rib, unga zarar yetkazishga tushadi. Bu ham uning ongini yo‘qolganligiga misol bo‘la oladi. Mana shu o‘yinlar natijasida ko‘plab Abdurayim kabi bolalar o‘z ongini yo‘qotib kompyuterga asirlikka tushishmoqda. Abdurayim kabi kompyuterga asirlikka tushgan, ya’ni manqurt bolalarning kelajagi qanday bo‘lishini o‘ylash ham qo‘rqinchlidir. Kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketgan o‘smirlar o‘zlari bilmagan holda yashirin kuchlarning qo‘g‘irchog‘iga aylanadi. Kompyuterga mute’ bo‘lgan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqti, hatto uyqusi ham bemani o‘yinlar bilan band bo‘ladi. Oxir-oqibat bunday manqurt yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo‘l ko‘tarishgacha, agar mubolag‘a bo‘lmasa qurol o‘qtalishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilmsizlik, johilikning tomir yoyishiga alal oqibat yurt parokanda bo‘lishiga olib keladi. Yoshlarning bunday g‘oyalarga aldanmasligi, zalolat botqog‘iga botmasligini ta’minlash niyatida zarur tavsiyalarni bayon qilamiz. Maqsadimiz yoshlarni internetga in qurib, o‘zlarining vayronkor g‘oyalarini virus kabi butun dunyoga tarqatayotgan jinoyatchilarning asl basharasidan ogoh etishdir. Sog‘lom aql egalari internet qulayliklaridan o‘z bilimlarini oshirish yo‘lida oqilona foydalanadi.²⁸ Lekin ba’zi Abdurayim kabi yoshlar esa ushbu tarmoqdagi yovuzlikka va o‘yinlardagi buzg‘unchi g‘oyalarga aldanib o‘zini va atrofdagilarni ongini zaharlayotgani aniq. Abduqayum Yo‘ldoshev Abdurayim obrazi orqali kompyuterdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida manqurt bolalarning yuzaga kelishi va ularning jamiyat uchun ayanchli bir holat ekanligini, kelajakda shu holatlar tufayli ayanchli manzaralar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida o‘z hikoyasiga shu g‘oyani ilgari surgan. Shunday qilib Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani va Abduqayum Yo‘ldoshevning “Samo elchisi” hikoyasida ham bir mavzu yetakchilik qiladi. Ya’ni ikkala asarning asosiy g‘oyalari ham bir xil. Bu ikki asarda ham yosh avlodning ongini va o‘zligini yo‘qolishi, ularning tashqi dunyodan uzoqlashib, faqat ongini asir qilib olgan tom ma’noda yangi xo‘jayinlarini gaplariga so‘zsiz quloq solib, jamiyatda bir manqurt sifatida

²⁸ Naqshband.uz Sh.Rahmonov

shakllanishiga sabab bo‘layotganliklari achinarli tarzda yoritib berilgan. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun” romanida Jo‘lamonni har xil qiynoqlar yordamida xotirasida ayrilgan bir manqurt sifatida tasvirlagan bo‘lsa, Abduqayum Yo‘ldoshev esa “Samo elchisi” hikoyasidagi Abdurayim obrazi orqali hozirgi kundagi bolalarning kompyuterdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida ularni kompyuterga mute’ bo‘lish oqibatida bir manqurt sifatida shakllanishini o‘z asarida tasvirlashgan. Ko‘rinib turibdiki, manqurt inson faqat xotiradan ayrilib yoki biror inson tomondan berilgan qiynoqlar oqibatida manqurtga aylanmas ekan, ular g‘ayrioddiy oqimlar yoki yashirin kuchlar orqali ham manqurtga aylanishi mumkin ekan. Yozuvchilar manqurtga aylanayotgan yoshlarni ko‘rib, shu manqurt yoshlarning qo‘lida yurt kelajagi turganligini o‘ylab juda qo‘rqishadi. Chunki sog‘lom kelajak qurish uchun, eng avvalo, sog‘lom kelajak avlod bo‘lishi zarur.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Sog‘lom avlod - bizning kelajagimiz” asarida shunday deydilar: “Sog‘lom avlod deganda, shaxsan men, eng avvalo sog‘lom nasilni, nafaqat jismonan baquvvat shu bilan birga ruhi, fikri sog‘lom, imon e‘tiqodi butun, bilimli, ma‘naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodni tushunaman. Buyuk davlatni nafaqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina qura oladi”²⁹.

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, kelajakda manqurt yosh avlod yetishib chiqmasligi uchun biz hozirdan yosh avlodni yaxshi narsalar bilan tarbiyalamog‘imiz kerak. Uydagi yoki tashqaridagi muhitning yaxshi yoki yomon bo‘lishi ham bolaga o‘z ta‘sirini o‘tkazmasdan qo‘ymaydi. Yaxshi muhitda tarbiya olgan yoshlar esa hech qachon manqurtga aylanmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Abduqayum Yo‘ldoshev “Samo elchisi”
2. Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun”
3. Xabar.uz Adham Otajonov

²⁹ “Ta‘lim bosqichlarida Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o‘rganish”. Bitiruv malakaviy ishi G.Jo‘rayeva Toshkent-2019

4. “Ta’lim bosqichlarida Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o‘rganish”. Bitiruv malakaviy ishi - G.Jo‘rayeva Toshkent-2019
5. Naqshband.uz Sh.Rahmonov

